



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ILMIY MAQOLA LEKSIKASIDAGI BIRLIKLARNING STRUKTUR-SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Maxmudova Sabinabonu Raxmatilla qizi
Andijon davlat chet tillari instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilmiy maqola leksikasining struktur-semantik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ingliz, rus va o'zbek tillari qiyosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ilmiy maqola yozilish jarayonida faol qo'llanadigan ot shaklidagi termin birikmalar, fe'l-nominal konstruksiyalar, shuningdek, IMRaD bo'limlariga xos metadiskursiv birliklarni aniqlash va tavsiflashdan iborat. Natijalar shuni ko'rsatdiki, uch tilda ham ilmiy maqola leksikasining yadrosi terminologik otlar, jarayon va amalni bildiruvchi fe'llar, hamda mantiqiy bog'lovchi-metadiskursiv birliklardan tashkil topadi.

Kalit so'zlar: ilmiy maqola, leksika, terminologik birlik, otlar birikma, fe'llik konstruksiya, fe'l-nominal model, metadiskurs, IMRaD, qiyosiy tahlil, ilmiy uslub.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЕДИНИЦ ЛЕКСИКИ НАУЧНОЙ СТАТЬИ

Махмудова Сабинабону Рахматилла кизи
Андижанский государственный институт иностранных языков, базовый докторант,

Аннотация

В статье анализируются структурно-семантические и коммуникативно-прагматические особенности лексики научной статьи в английском, русском и узбекском языках. Цель исследования состоит в выявлении и описании номинативных терминологических единиц, глагольных и глагольно-именных конструкций, а также метадискурсивных средств, активно используемых при написании научной статьи. Результаты показывают, что во всех трех языках ядро лексики научной статьи составляют терминологические существительные, глаголы, обозначающие исследовательские процедуры и результаты, а также логико-метадискурсивные единицы.

Ключевые слова: научная статья, лексика, терминологическая единица, именное сочетание, глагольная конструкция, глагольно-именная модель, метадискурс, IMRaD, сопоставительный анализ, научный стиль.

STRUCTURAL-SEMANTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF LEXICAL UNITS IN SCIENTIFIC ARTICLES

Maxmudova Sabinabonu Raxmatilla qizi
Andijan State Institute of Foreign Languages, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the structural-semantic and communicative-pragmatic features of scientific article vocabulary in English, Russian, and Uzbek. The aim of the study is to identify and describe nominal terminological units, verbal and verbo-nominal constructions, and metadiscursive markers that are actively used in scientific article writing. The findings show that in all three languages the lexical core of the scientific article consists of terminological nouns, verbs denoting research procedures and results, and logical-metadiscursive units.

Keywords: scientific article, vocabulary, terminological unit, nominal phrase, verbal

construction, verbo-nominal model, metadiscourse, IMRaD, comparative analysis, scientific style.

Yozma ilmiy janrlar tizimida ilmiy maqola ilmiy natijani ixcham, tekshiriladigan va akademik hamjamiyat uchun qulay shaklda taqdim etuvchi yetakchi janrlardan biridir. Shu bois ilmiy maqola sifati nafaqat uning mazmuniga, balki mazmunni ifodalovchi til vositalarining aniqligi va mantiqiy uyushganligiga ham bog'liq bo'ladi [2,13]. Ilmiy matnda so'z tanlovi tasodifiy emas, u tadqiqot obyektini nomlaydi, ilmiy amalni ifodalaydi, natijani dalillaydi va xulosani umumlashtiradi.

Ilmiy maqola leksikasi o'z tabiati bilan badiiy matn leksikasidan farq qiladi. Badiiy matnda individual uslub va obrazlilik yetakchi bo'lsa, ilmiy maqolada terminologik aniqlik, semantik torayish, neytrallik va funksional yo'naltirilganlik ustun turadi [2,18]. Ayniqsa, IMRaD tuzilishidagi har bir bo'lim o'ziga xos leksik maydonni shakllantiradi: kirishda muammo va maqsadni ifodalovchi birliklar, metodda tadqiqot amallarini ko'rsatuvchi birliklar, natijalarda fakt va ko'rsatkichlarni ifodalovchi birliklar, muhokamada esa talqin va qiyoslash vositalari ustunlashadi [2,10].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, semantik-pragmatik va diskursiv tahlil usullari qo'llanildi. Tahlil obyekti sifatida ilmiy maqolaning IMRaD bo'limlarida odatda ishlatiladigan tipik leksik modellar olindi. Tahlilda uch asosiy guruhga e'tibor qaratildi:

- a) ot shaklidagi termin birikmalar;
- b) fe'l-nominal konstruksiyalar;
- c) metadiskursiv va kommunikativ-pragmatik birliklar.

Ilmiy maqola tuzilishini tushuntirishda J. M. Sveylsning janr nazariyasiga oid qarashlari muhim metodologik tayanch hisoblanadi. Unga ko'ra, ilmiy maqolaning kirish qismi avvalo tadqiqot maydonini belgilaydi, keyin ilmiy bo'shliqni ko'rsatadi va nihoyat muallifning tadqiqot maqsadini bayon qiladi [3,140]. Tushuniladiki, kirish bo'limidagi leksik birliklar "mavzu – bo'shliq – maqsad" zanjirini ifodalashga xizmat qiladi. S. A. Mak ilmiy maqola yozishda standart kompozitsiya va uslubning muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ilmiy maqolada asosiy mezonlar aniqlik, lo'ndalik, ravshanlik va tekshiriluvchanlik bo'lib, so'zlar ilmiy mazmunni to'g'ri yetkazish vositasi sifatida xizmat qilishi kerak [2,13]. Shu bilan birga, u IMRaD tuzilmasi muallifga ilmiy materialni tartibli joylashtirish, o'quvchiga esa kerakli axborotni tez topish imkonini berishini qayd etadi [2,5]. L. F. Azevedo esa metod bo'limi nafaqat "nima qilinganini", balki "nima uchun aynan shu yo'l tanlanganini" ko'rsatishi kerakligini urg'ulaydi [1,232].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ilmiy maqola leksikasining semantik yadrosi, eng avvalo, ot shaklidagi termin birikmalardan tashkil topadi. Chunki ilmiy matnda predmetning o'zi emas, balki tushuncha, kategoriya, model, metod, natija va funksiya nomlanadi. Shu sababli ilmiy maqola tilida otlar va otlashgan birliklar yuqori mavqega ega bo'ladi [2,18].

Leksik guruh	Ingliz tilida	Rus tilida	O'zbek tilida
Tadqiqot obyekti	1. research problem 2. lexical unit 3. discourse marker 4. corpus material 5. language phenomenon 6. terminological field 7. conceptual domain 8. text fragment	1. исследовательская проблема 2. лексическая единица 3. дискурсивный маркер 4. корпусный материал 5. языковое явление 6. терминологическое поле 7. концептуальная область 8. текстовый фрагмент	1. tadqiqot muammosi 2. leksik birlik 3. diskurs ko'rsatkichi 4. korpus materiali 5. til hodisasi 6. terminologik maydon 7. konseptual soha 8. matn parchasi
Nazariy birlik	1. semantic feature 2. communicative function 3. structural model 4. conceptual relation 5. pragmatic meaning 6.	1. семантический признак 2. коммуникативная функция 3. структурная модель 4. концептуальная связь 5. прагматическое значение 6.	1. semantik belgi 2. kommunikativ vazifa 3. struktur model 4. konseptual aloqa 5. pragmatik ma'no 6.

	grammatical category 7. lexical field 8. thematic group	грамматическая категория 7. лексическое поле 8. тематическая группа	grammatik kategoriya 7. leksik maydon 8. tematik guruh
Natija nomi	1. research finding 2. lexical pattern 3. distribution of units 4. semantic shift 5. frequency indicator 6. classification result 7. functional load 8. comparative similarity	1. результат исследования 2. лексическая модель 3. распределение единиц 4. семантический сдвиг 5. частотный показатель 6. результат классификации 7. функциональная нагрузка 8. сопоставительное сходство	1. tadqiqot natijasi 2. leksik model 3. birliklar taqsimoti 4. semantik siljish 5. chastota ko'rsatkichi 6. tasnif natijasi 7. funksional yuklama 8. qiyosiy o'xshashlik
Metod nomi	1. comparative analysis 2. discourse analysis 3. semantic classification 4. corpus analysis 5. component analysis 6. contextual interpretation 7. quantitative description 8. functional analysis	1. сопоставительный анализ 2. дискурсивный анализ 3. семантическая классификация 4. корпусный анализ 5. компонентный анализ 6. контекстуальная интерпретация 7. количественное описание 8. функциональный анализ	1. qiyosiy tahlil 2. diskursiv tahlil 3. semantik tasnif 4. korpus tahlili 5. komponent tahlil 6. kontekstual talqin 7. miqdoriy tavsif 8. funksional tahlil

1-jadval. Ilmiy maqolada uchraydigan ot shaklidagi termin birikmalar qiyosi

Jadvaldan ko'rinadiki, ingliz tilida otli birikmalar ko'pincha komponentlari zich joylashgan holda keladi: *research problem*, *discourse marker*, *semantic feature*. Rus tilida bu birikmalar nazariy aniqlik va ilmiy kategoriyalash xususiyati bilan ajralib turadi: *коммуникативная функция*, *структурная модель*. O'zbek tilida esa termin birikmalari ko'proq izohli va ochiq quriladi: *kommunikativ vazifa*, *birliklar taqsimoti*, *semantik tasnif*. Bu farq analitik, sintetik va agglutinativ tillarning umumiy struktur xususiyatlari bilan ham izohlanadi.

Quyidagi mikromisollarni qiyoslaylik:

- Ingliz tilida: *The lexical structure of the article reveals a high density of nominal units.*
- Rus tilida: *Лексическая структура статьи демонстрирует высокую плотность номинативных единиц.*
- O'zbek tilida: *Maqolaning leksik tuzilishi nominal birliklarning yuqori faolligini ko'rsatadi.*

Bu uch gapda ham asosiy ma'no *lexical structure* / *лексическая структура* / *leksik tuzilish*, *density of nominal units* / *плотность номинативных единиц* / *nominal birliklarning faolligi* kabi otli birikmalar orqali tashilganini ko'rish mumkin. Anglashiladiki, ilmiy maqola leksikasida ot so'z turkumi mazmun tashuvchi markaziy birlik vazifasini bajaradi.

Ilmiy maqolada fe'l oddiy harakatni emas, ilmiy amalni ko'rsatadi. Ya'ni fe'l tadqiqotning bajarilgan jarayonini, aniqlangan holatini yoki talqin etilgan natijasini ifodalaydi. Shu ma'noda ilmiy matnda *to analyze*, *to identify*, *to classify*, *to reveal*, *to demonstrate* kabi fe'llar, o'zbek tilida *tahlil qilmoq*, *aniqlamoq*, *tasniflamoq*, *ko'rsatmoq* singari vositalar, rus tilida esa *анализировать*, *выявлять*, *классифицировать*, *показывать* kabi birliklar yuqori chastotaga ega bo'ladi [1,238].

Funksiya	Ingliz tilida	Rus tilida	O'zbek tilida
Maqsadni ifodalash	1. aims to identify 2. seeks to describe 3. is intended to reveal 4. is designed to determine 5. is aimed at analyzing 6. attempts to compare	1. направлено на выявление 2. ставит целью описание 3. предназначено для раскрытия 4. направлено на определение 5. ориентировано на анализ 6. стремится сопоставить	1. aniqlashni maqsad qiladi 2. tavsiflashga qaratilgan 3. ochib berishga mo'ljallangan 4. belgilashga yo'naltirilgan 5. tahlil qilishga qaratilgan 6. qiyoslashga intiladi
Metodni ifodalash	1. were analyzed 2. was classified 3. was compared 4. were	1. были проанализированы 2. было классифицировано 3. было сопоставлено 4. были	1. tahlil qilindi 2. tasniflandi 3. qiyoslandi 4. ko'rib chiqildi 5.

	examined 5. was measured 6. were grouped	рассмотрены 5. было измерено 6. были сгруппированы	o'Ichandi 6. guruhlandi
Natijani ifodalash	1. results showed 2. the analysis revealed 3. the findings demonstrated 4. the study confirmed 5. the data indicated 6. the comparison showed	1. результаты показали 2. анализ выявил 3. полученные данные продемонстрировали 4. исследование подтвердило 5. данные указали 6. сопоставление показало	1. natijalar ko'rsatdi 2. tahlil aniqladiki 3. olingan ma'lumotlar ko'rsatdiki 4. tadqiqot tasdiqladi 5. ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki 6. qiyoslash ko'rsatdiki
Talqinni ifodalash	1. this suggests 2. this indicates 3. this implies 4. this can be interpreted as 5. this points to 6. this allows us to conclude that	1. это позволяет предположить 2. это указывает на 3. это подразумевает 4. это может быть интерпретировано как 5. это свидетельствует о 6. это позволяет сделать вывод, что	1. bu holat shuni anglatadiki 2. bu esa ko'rsatadiki 3. bu ma'noni bildiradi 4. bu hodisa alohida xususiyat sifatida talqin qilinishi mumkin 5. bu muayyan tendensiyaga ishora qiladi 6. bundan xulosa qilish mumkinki
Fe'l-nominal model	1. makes an analysis 2. gives a description 3. carries out an investigation 4. provides an explanation 5. conducts a comparison 6. offers an interpretation	1. проводит анализ 2. дает описание 3. осуществляет исследование 4. дает объяснение 5. проводит сопоставление 6. предлагает интерпретацию	1. tahlil olib boradi 2. tavsif beradi 3. tadqiqot olib boradi 4. izoh beradi 5. qiyosiy tahlil amalga oshiradi 6. talqin beradi

2-jadval. Fe'l-nominal konstruksiyalar qiyosi

Funksiya	Ingliz tilida	Rus tilida	O'zbek tilida
Maqsadni ifodalash	<i>The study aims to identify recurrent verbal-nominal patterns in academic discourse.</i>	<i>Исследование направлено на выявление повторяющихся глагольно-именных моделей в научном дискурсе.</i>	<i>Tadqiqot ilmiy diskursdagi takrorlanuvchi fe'l-nominal modellarni aniqlashga qaratilgan.</i>
Metodni ifodalash	<i>The selected examples were analyzed, classified, and compared across the three languages.</i>	<i>Отобранные примеры были проанализированы, классифицированы и сопоставлены в трех языках.</i>	<i>Tanlangan misollar uch tilda tahlil qilindi, tasniflandi va qiyoslandi.</i>
Natijani ifodalash	<i>The results showed that passive verbal forms are especially frequent in method sections.</i>	<i>Результаты показали, что пассивные глагольные формы особенно частотны в методологическом разделе.</i>	<i>Natijalar ko'rsatdiki, passiv fe'li shakllar metod bo'limida ayniqsa ko'p uchraydi.</i>
Talqinni ifodalash	<i>This suggests that construction choice depends on the</i>	<i>Это позволяет предположить, что выбор конструкции зависит от</i>	<i>Bu holat konstruksiya tanlovi matnning kommunikativ</i>

	<i>communicative aim of the text.</i>	коммуникативной цели текста.	<i>maqsadiga bog'liq ekanini anglatadi.</i>
Fe'l-nominal model	<i>The author gives a detailed description of the lexical units found in the corpus.</i>	Автор дает подробное описание лексических единиц, обнаруженных в корпусе.	<i>Muallif korpusda uchragan leksik birliklarga batafsil tavsif beradi.</i>

3-jadval. Namunaviy gaplar

Fe'l-nominal konstruksiyalar ham ilmiy uslub uchun juda xos. Masalan, oddiy *analyzed* fe'li o'rniga *carried out an analysis* modeli, yoki o'zbek tilida *tahlil qildi* o'rniga *tahlil olib bordi* shakli ishlatilishi mumkin. Bunday modellar bayonni rasmiylashtiradi, uslubiy neytrallikni kuchaytiradi va ilmiy ifodaning institutsional tusini oshiradi.

Quyidagi misollarni qiyoslaylik:

- Ingliz tilida: *The study aims to identify the dominant lexical patterns in scientific writing.*
- Rus tilida: *Исследование направлено на выявление доминирующих лексических моделей научного письма.*
- O'zbek tilida: *Tadqiqot ilmiy yozuvdagi ustuvor leksik modellarni aniqlashga qaratilgan.*

Bu misollarda maqsad ifodasi turlicha qurilgan bo'lsa-da, semantik yadro bir xil: *aim / направлено / qaratilgan*. Demak, ilmiy maqoladagi fe'lilik konstruksiyalar bo'lim vazifasiga mos ravishda ixtisoslashadi.

Ilmiy maqolada leksika bir xil tarqalmaydi, aksincha, har bir bo'lim o'ziga xos leksik maydonni shakllantiradi [2,6]. Shu sababli IMRaD bo'limlariga xos faol birliklarni alohida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Bo'lim	Ingliz tilida	Rus tilida	O'zbek tilida
Introduction	research problem; research gap; objective; relevance; novelty; background; rationale; hypothesis; previous studies; literature review; research questions; theoretical framework	проблема исследования; исследовательский пробел; цель исследования; актуальность; научная новизна; фон исследования; обоснование; гипотеза; предыдущие исследования; обзор литературы; исследовательские вопросы; теоретическая основа	tadqiqot muammosi; tadqiqot bo'shlig'i; maqsad; dolzarblik; ilmiy yangilik; tadqiqot foni; asoslantirish; gipoteza; avvalgi tadqiqotlar; adabiyotlar sharhi; tadqiqot savollari; nazariy asos
Methods	corpus; data; dataset; materials; procedure; methodology; sample; sampling; classification; coding; analysis; instrument; variables; criteria	корпус; данные; набор данных; материалы; процедура; методология; выборка; отбор; классификация; кодирование; анализ; инструмент; переменные; критерии	korpus; ma'lumot; ma'lumotlar to'plami; materiallar; tartib; metodologiya; tanlanma; saralash; tasnif; kodlash; tahlil; instrument; o'zgaruvchilar; mezonlar
Results	findings; results; revealed; identified; distribution; pattern; frequency; model; correlation; significant difference; tendency;	результаты; полученные данные; выявлено; установлено; распределение; закономерность; частотность; модель;	natijalar; topilmalar; aniqlandi; belgilandi; taqsimot; andoza; uchrashish chastotasi; model; korrelyatsiya; ahamiyatli farq;

	evidence	корреляция; значимое различие; тенденция; данные свидетельствуют	tendensiya; dalillar shuni ko'rsatadiki
Discussion	interpretation; implication; indicates; suggests; comparison; explanation; meaning; theoretical implication; practical implication; limitation; consistency; contrast	интерпретация; значение; указывает; позволяет предположить; сопоставление; объяснение; смысл; теоретическое значение; практическое значение; ограничение; согласуется; контрастирует	talqin; ahamiyat; ko'rsatadi; anglatadi; qiyoslash; izohlash; mazmun; nazariy ahamiyat; amaliy ahamiyat; cheklov; mos keladi; qarama-qarshi qo'yadi
Conclusions	in conclusion; overall; confirms; can be concluded; summary; contribution; recommendation; future research; main outcome; final remark	в заключение; в целом; подтверждает; можно сделать вывод; итог; вклад исследования; рекомендация; перспективы дальнейших исследований; основной результат; заключительное замечание	xulosa qilib aytganda; umuman olganda; tasdiqlaydi; shunday xulosa qilish mumkin; yakuniy xulosa; tadqiqot hissasi; tavsia; keyingi tadqiqot yo'nalishlari; asosiy natija; yakuniy mulohaza

4-jadval. IMRaD bo'limlarida ustuvor leksik birliklar qiyosi

Mazkur jadval shuni ko'rsatadiki, ilmiy maqola yozishda so'z tanlovi bevosita bo'limning kommunikativ vazifasi bilan bog'liq. Kirishda muammo va maqsad, metodda amaliy jarayon, natijada topilma, muhokamada sharh, xulosada esa umumlashtirish yetakchi bo'ladi. Shu ma'noda ilmiy maqola leksikasi kompozitsion-funksional leksika sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan, kirish uchun quyidagi modellarga e'tibor berish mumkin:

– Ingliz tilida: *This article addresses the problem of lexical organization in scientific texts.*

– Rus tilida: *В статье рассматривается проблема лексической организации научного текста.*

– O'zbek tilida: *Mazkur maqolada ilmiy matn leksikasining tashkil topish muammosi ko'rib chiqiladi.*

Metod qismida esa:

– Ingliz tilida: *The data were analyzed by means of comparative and semantic methods.*

– Rus tilida: *Материал был проанализирован с помощью сопоставительного и семантического методов.*

– O'zbek tilida: *Material qiyosiy va semantik usullar yordamida tahlil qilindi.*

Natijalar qismida:

– Ingliz tilida: *The results showed the dominance of nominal constructions.*

– Rus tilida: *Результаты показали доминирование номинативных конструкций.*

– O'zbek tilida: *Natijalar nominal konstruksiyalarning ustunligini ko'rsatdi.*

Bu misollar IMRaD bo'limlariga xos leksik qoliplarning qanchalik barqaror ekanini ko'rsatadi.

Ilmiy matnda emotsional bo'yoq kamroq, lekin fikr tartibi, dalil, ehtiyotkor talqin, xulosa va qo'shimcha mulohaza kabi birliklar juda muhim.

Kommunikativ ravnok	Ingliz tilida	Rus tilida	O'zbek tilida
---------------------	---------------	------------	---------------

Ta'kidni ifodalovchi birliklar	of course, indeed, in fact, certainly, actually, clearly, evidently	конечно, действительно, фактически, несомненно, безусловно, очевидно	albatta, darhaqiqat, aslida, shubhasiz, aniqki, ravshanki
Gumonni ifodalovchi birliklar	perhaps, maybe, probably, possibly, presumably, it seems	возможно, вероятно, по-видимому, может быть, предположительно	ehtimol, balki, chamasi, ko'rinishicha, bo'lishi mumkin
Shaxsiy fikrni ifodalovchi birliklar	in our view, in my opinion, from our perspective, according to the author, as we see it	по нашему мнению, на наш взгляд, согласно автору, с нашей точки зрения	bizningcha, menimcha, muallif fikricha, bizning nazarimizda, shunga ko'ra
Fikr tartiblovchi birliklar	first, secondly, finally, to begin with, next, lastly	во-первых, во-вторых, наконец, прежде всего, далее, в заключение	birinchidan, ikkinchidan, nihoyat, avvalo, keyin, yakunda
Ishonchni ifodalovchi birliklar	no doubt, to be sure, it is clear that, undoubtedly, certainly, there is no question that	несомненно, безусловно, очевидно, что, вне всякого сомнения, ясно, что	shubhasiz, so'zsiz, aniqki, hech shubha yo'qki, ravshanki
Yakunni ifodalovchi birliklar	in conclusion, to sum up, overall, in summary, ultimately, all in all	в заключение, таким образом, в целом, итак, подводя итог	xulosa qilib, umuman olganda, yakunda, qisqacha aytganda, demak
Dalillarni ifodalovchi birliklar	for example, for instance, specifically, to illustrate, such as, namely	например, в частности, конкретно, для иллюстрации, а именно	masalan, jumladan, xususan, misol tariqasida, ya'ni
Qo'shimcha fikr ifodalovchi birliklar	moreover, furthermore, in addition, besides, additionally, also	кроме того, более того, дополнительно, также, вдобавок	bundan tashqari, qo'shimcha ravishda, yana, shuningdek, bundan bo'lak

5-jadval. Ilmiy maqolada kommunikativ-pragmatik birliklar qiyosi

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, uchala tilda ham ilmiy maqola fikrning izchilligini ta'minlovchi birliklarga tayangan holda quriladi. Faqat ifoda shakli farqlanadi. Ingliz tilida ko'pincha qisqa va ixcham birliklar ustun bo'lsa, rus tilida ko'proq murakkab metadiskursiv formulalar, o'zbek tilida esa izohli va sintaktik jihatdan kengroq vositalar qo'llanadi.

Quyidagi misollarni qiyoslaylik:

– Ta'kidni ifodalovchi: *Indeed, the results confirm the stability of the model.* / Действительно, результаты подтверждают устойчивость модели. / *Darhaqiqat, natijalar modelning barqarorligini tasdiqlaydi.*

– Gumonni ifodalovchi: *Perhaps, this variation is related to genre differences.* / Возможно, данное различие связано с жанровыми особенностями. / *Ehtimol, bu farq janr xususiyatlari bilan bog'liqdir.*

– Shaxsiy fikrni ifodalovchi: *In our view, the proposed approach is more effective.* / По нашему мнению, предложенный подход более эффективен. / *Bizningcha, taklif etilgan yondashuv*

samaraliroqdir.

– Yakunni ifodalovchi: *In conclusion, the comparative analysis revealed several common patterns. / В заключение сопоставительный анализ выявил ряд общих закономерностей. / Xulosa qilib aytganda, qiyosiy tahlil bir qator umumiy qonuniyatlarni aniqladi.*

Bu misollarda xulosa shakllantiruvchi birliklar uch tilda ham aniq ko‘rinadi: *in conclusion / в заключение / demak*. Shunday qilib, metadiskursiv birliklar ilmiy maqolaning mantiqiy skeletini yaratadi.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirganda, uch tilda ilmiy maqola leksikasi uchun quyidagi umumiy belgilar ajralib chiqadi:

1. Terminologik aniqlik – tushuncha noaniq emas, chegaralangan holda nomlanadi.
2. Nominal ustuvorlik – ilmiy mazmun asosan otlar va otli birikmalar orqali tashiladi.
3. Jarayon fe‘llari faolligi – metod va natijani ifodalovchi fe‘llar yuqori chastotaga ega.
4. Metadiskursiv tartib – bo‘limlararo va fikrlararo bog‘liqlik maxsus birliklar yordamida saqlanadi.
5. Neytrallik – hissiy bo‘yoqdorlik minimum darajada bo‘ladi [2,18].

Farqli jihatlar esa quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Ingliz tilida siqiq nominal konstruksiyalar va qisqa metadiskursiv birliklar ustun.
- Rus tilida nazariy va sharhlovchi birliklar nisbatan kuchli.
- O‘zbek tilida izohli, ochiq va sintaktik jihatdan kengroq birikmalar faol.

Demak, ilmiy maqola leksikasini qiyosiy o‘rganish yosh tadqiqotchiga nafaqat “qanday yozish”, balki “qaysi bo‘limda qanday so‘zlar bilan yozish”ni ham anglatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari ilmiy maqola leksikasi uch tilda ham bir xil ilmiy-kommunikativ vazifaga xizmat qilishini, ammo bu vazifa turli leksik modellar orqali voqelanishini ko‘rsatdi. Ilmiy maqola tilida otli termin birikmalar semantik markazni tashkil etsa, fe‘llik va fe‘l-nominal konstruksiyalar ilmiy amalni ifodalaydi, metadiskursiv birliklar esa matnning ichki mantiqini ta‘minlaydi. Bu holat ilmiy maqolaning nafaqat kompozitsion, balki leksik jihatdan ham qat‘iy tashkillangan janr ekanini ko‘rsatadi. Ingliz, rus va o‘zbek tillari qiyosida ingliz tilining siqiq nominal modeli, rus tilining nazariy-metadiskursiv xarakteri va o‘zbek tilining izohli terminologik tabiati alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, uch tilda ham IMRaD bo‘limlari va ularga xos leksik maydon barqarorligi saqlanadi. Bu esa ilmiy maqola yozishda bo‘limning funksiyasiga mos leksik vositalarni tanlash zarurligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, ilmiy maqola leksikasini tahlil qilish faqat so‘zlarni sanash emas, balki ilmiy tafakkurning matndagi ifoda mexanizmini tushuntirishdir. Termin, amal, dalil va xulosa bir-biri bilan leksik jihatdan bog‘langan taqdirdagina maqola yaxlit, mantiqli va akademik jihatdan kuchli matnga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azevedo L. F., Costa-Pereira A., Mendonça J., Moreira A., Ferreira A. How to write a scientific paper: writing the methods section // *Revista Portuguesa de Pneumologia*. – 2011. – Vol. 17. – No. 5. – P. 232–238.
2. Mack C. A. How to write a good scientific paper. – Bellingham (WA): SPIE Press, 2018. – 122 p.
3. Swales J. M. Genre analysis: English in academic and research settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 288 p.
4. Hyland K. Metadiscourse: exploring interaction in writing. – London; New York: Continuum, 2005. – 230 p.
5. Cargill M., O‘Connor P. Writing scientific research articles: strategy and steps. – 2nd ed. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2013. – 236 p.
6. Day R.A., Gastel B. How to write and publish a scientific paper. – 9th ed. – Greenwood: Bloomsbury Publishing, 2022. – 376 p.